

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

9 ЖИЛД, 2 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 9, НОМЕР 2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 9, ISSUE 2



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№2 (2026) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2026-2>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурадов Мансур Бобомурадович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна

кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович

доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Бекмуродов Мансур IJTIMOIY-MA'NAVIY MUHITNI SOG'LOMLASHTIRISHDA FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARI ROLI.....	5
2. Сеитов Азамат, Вахидов Имран РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В УЧЕБНОМ ПРОЦЕССЕ ОБУЧАЮЩЕЙСЯ МОЛОДЕЖИ В КОНТЕКСТЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН.....	16
3. Латипова Нодира, Турсунов Рустам, Кара Шохсанам ВОСПРИЯТИЕ НАСИЛИЯ И ЕГО СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПОСЛЕДСТВИЯ.....	25
4. Karimov Bobir YOSH RAHBARLARDA KREATIV VA TANQIDIY FIKRLASH KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING SOTSIOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	33
5. Сабирова Умида, Эрбаева Диёра ГЕНДЕРНОЕ РАВЕНСТВО В СЕМЕЙНЫХ ОТНОШЕНИЯХ И ГАРМОНИЗАЦИЯ ТРУДОВОЙ И СЕМЕЙНОЙ РОЛИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	40
6. Zaitov Elyor O'ZINI O'ZI BOSHQARISH INSTITUTLARI TRANSFORMATSIYASINING INSTITUTIONAL ASOSLARI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	46
7. Хидиров Сухроб ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ШАРОИТИДА МИЛЛАТЛАРАРО СТЕРЕОТИПЛАРНИНГ ИЖТИМОЙ ХАВФСИЗЛИККА ТАЪСИРИ (ЭМПИРИК ТАДҚИҚОТЛАР АСОСИДА)...	54
8. Ixtiyarov Farxod RAQAMLI JAMIYAT FENOMENINING SOTSIOLOGIK ASOSLARI.....	60
9. G'oyibov Elyor O'ZINI O'ZI TAKOMILLASHTIRISH (SELF-MANAGEMENT) OMILINI RIVOJLANISHINING GURUHIY DINAMIKASIGA TA'SIRI.....	67
10. Ibragimov Murodjon YOSHLAR TASHKILOTLARINING KOMMUNIKATIV FAOLIYATNI TASHKIL ETISHDA IJTIMOIYLAHV OMILINING O'RNI.....	73
11. Husenov Sirojiddin “HAR BIR OILA TADBIRKOR” IJTIMOIY HARAKATIDA MOTIVATSIYA, KO'NIKMA VA MOLIYAVIY KO'MAK TIZIMI.....	82
12. Tadjibayeva Venera BOQIMANDALIK TUSHUNCHASINING SOTSIOLOGIK MAZMUN-MOHİYATI.....	89

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES


Хидиров Сухроб,

Республика Маънавият ва маърифат

маркази бўлим бошлиғи,

Социология фанлари доктори (PhD)

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН ШАРОИТИДА МИЛЛАТЛАРАРО СТЕРЕОТИПЛАРНИНГ ИЖТИМОЙ ХАВФСИЗЛИККА ТАЪСИРИ (ЭМПИРИК ТАДҚИҚОТЛАР АСОСИДА)

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.20064325>

АННОТАЦИЯ

Мазкур мақолада Янги Ўзбекистон шароитида миллатлараро стереотипларнинг ижтимоий хавфсизликка таъсири эмпирик тадқиқотлар асосида комплекс тарзда таҳлил қилинган. Шунингдек, тадқиқот доирасида мавзуга оид хорижий ва маҳаллий илмий адабиётлар қиссий таҳлил қилиниб, стереотипларнинг ижтимоий муносабатларга таъсир этиш механизмлари назарий жиҳатдан ёритиб берилган. Эмпирик натижаларга кўра, жамиятда миллатлараро тотувлик устувор қиймат сифатида шаклланган бўлса-да, айрим ҳудудларда маиший даражадаги салбий стереотиплар сақланиб қолмоқда. Ушбу ҳолатлар ижтимоий ишонч ва барқарорликка муайян даражада таъсир кўрсатиши мумкин. Мақолада олинган натижалар ҳамда адабиётлар таҳлили асосида ижтимоий хавфсизликни мустаҳкамлашга қаратилган амалий таклиф ва тавсиялар ишлаб чиқилган.

Калит сўзлар: миллатлараро муносабатлар, стереотип, ижтимоий хавфсизлик, бағрикенглик, эмпирик тадқиқот, Янги Ўзбекистон, ижтимоий ишонч.

Сухроб Хидиров,

Заведующий отделом

Республиканского центра духовности и просвещения,

доктор философии (PhD) по социологии

ВЛИЯНИЕ МЕЖНАЦИОНАЛЬНЫХ СТЕРЕОТИПОВ НА СОЦИАЛЬНУЮ БЕЗОПАСНОСТЬ В УСЛОВИЯХ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА (НА ОСНОВЕ ЭМПИРИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЙ)

АННОТАЦИЯ

В данной статье на основе эмпирических исследований проведён комплексный анализ влияния межэтнических стереотипов на социальную безопасность в условиях Нового Узбекистана. В рамках исследования также осуществлён сравнительный анализ зарубежной и отечественной научной литературы, что позволило теоретически осветить механизмы воздействия стереотипов на социальные отношения. Результаты эмпирического исследования показывают, что в обществе межэтническое согласие сформировалось как приоритетная ценность, однако в отдельных регионах сохраняются бытовые формы негативных стереотипов. Данные явления могут в определённой степени оказывать влияние на уровень

социального доверия и стабильности. На основе полученных результатов и анализа литературы разработаны практические рекомендации, направленные на укрепление социальной безопасности.

Ключевые слова: межэтнические отношения, стереотип, социальная безопасность, толерантность, эмпирическое исследование, Новый Узбекистан, социальное доверие.

Khidirov Sukhrob,

Head of Department of the Republican Center
for spirituality and enlightenment,
Doctor of philosophy in sociology (PhD)

THE IMPACT OF INTERETHNIC STEREOTYPES ON SOCIAL SECURITY IN THE CONTEXT OF NEW UZBEKISTAN (BASED ON EMPIRICAL RESEARCH)

ABSTRACT

This article provides a comprehensive analysis of the impact of interethnic stereotypes on social security in the context of New Uzbekistan, based on empirical research. The study also includes a comparative review of both international and local academic literature, which allows for a theoretical understanding of the mechanisms through which stereotypes influence social relations. The empirical findings indicate that interethnic harmony has become a dominant social value; however, certain regions still exhibit everyday forms of negative stereotypes. These phenomena may affect the level of social trust and overall stability to some extent. Based on the research findings and literature analysis, practical recommendations aimed at strengthening social security have been developed.

Keywords: interethnic relations, stereotype, social security, tolerance, empirical research, New Uzbekistan, social trust.

KIRISH

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar jamiyatda inson qadrini ulug'lash, fuqarolik birligi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan [1]. Ko'p millatli jamiyat sharoitida millatlararo munosabatlar mazkur jarayonning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi [2]. Ayniqsa, millatlararo stereotiplar ijtimoiy munosabatlarga ta'sir etuvchi muhim omil sifatida namoyon bo'lib, ular ijtimoiy ishonch, hamjihatlik va xavfsizlik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi [3].

Shu nuqtai nazardan, millatlararo stereotiplarning ijtimoiy xavfsizlikka ta'sirini empirik ma'lumotlar asosida tahlil qilish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi [4].

Ijtimoiy fanlarda stereotiplar muayyan ijtimoiy guruh haqida shakllangan barqaror tasavvurlar sifatida talqin qilinadi. Ular inson ongida ijtimoiy muhit ta'sirida shakllanib, guruhlararo munosabatlarga ta'sir ko'rsatadi [5].

METODOLOGIYA

Zamonaviy yondashuvlarga ko'ra, Social Identity Theory insonlarni "o'z" va "boshqa" guruhlariga ajratish orqali stereotiplarning shakllanishini tushuntiradi. Shuningdek, Stereotype Content Model stereotiplarni "iliqlik" va "qobiliyat" mezonlari asosida tahlil qilish imkonini beradi [6].

Shu bilan birga, Contact Hypothesis guruhlararo muloqot salbiy stereotiplarni kamaytirishda muhim ahamiyatga ega ekanini asoslab beradi.

Ijtimoiy xavfsizlik esa jamiyatda barqarorlik, o'zaro ishonch va adolat ta'minlangan holatni anglatadi [7]. Millatlararo munosabatlardagi salbiy stereotiplar mazkur xavfsizlikka tahdid solishi mumkin.

Millatlararo stereotiplar va ularning ijtimoiy xavfsizlikka ta'siri muammosi xorijiy ilmiy tadqiqotlarda keng qamrovli o'rganilgan bo'lib, mazkur yo'nalishda turli nazariy yondashuvlar va empirik modellar shakllangan [8].

Avvalo, ijtimoiy psixologiya doirasida stereotiplar inson ongida ijtimoiy guruhlar haqida shakllanadigan barqaror kognitiv tasavvurlar sifatida talqin etiladi. Klassik yondashuvlardan biri sifatida Social Identity Theory e'tirof etilib, unga ko'ra shaxs o'zini muayyan ijtimoiy guruh bilan identifikatsiya qiladi va "o'z guruhi" (in-group) hamda "begona guruh" (out-group) o'rtasida farq qiladi [9]. Bu esa ko'p hollarda stereotiplarning shakllanishiga va ijtimoiy masofaning ortishiga olib keladi.

Shu bilan birga, zamonaviy tadqiqotlarda keng qo'llanilayotgan nazariy modellardan biri – Stereotype Content Model hisoblanadi. Ushbu modelga ko'ra, stereotiplar ikki asosiy o'lchov – "iliqlik" (warmth) va "qobiliyat" (competence) orqali baholanadi [10]. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jamiyatdagi turli etnik guruhlariga nisbatan munosabatlar aynan shu ikki mezon asosida shakllanadi va bu holat ijtimoiy tengsizlik, resurslar taqsimoti hamda siyosiy pozitsiyalar bilan uzviy bog'liqdir.

Bolalik va o'smirlik davrida stereotiplarning shakllanish jarayonini tushuntiruvchi muhim nazariyalardan biri — Developmental Intergroup Theory hisoblanadi [11]. Mazkur yondashuvga ko'ra, bolalar ijtimoiy muhit, ta'lim tizimi va ommaviy axborot vositalari ta'sirida etnik va ijtimoiy farqlarni anglab boradi va shu jarayonda stereotiplar shakllanadi.

Xorijiy tadqiqotlarda millatlararo munosabatlarda bevosita kontaktning ahamiyati ham alohida ta'kidlanadi. Xususan, Contact Hypothesis ga ko'ra, turli etnik guruhlar o'rtasidagi bevosita muloqot va hamkorlik salbiy stereotiplarni kamaytirishda muhim omil hisoblanadi [12].

So'nggi yillarda stereotiplarning dinamik xususiyatiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, "stereotype negotiation" konsepsiyasiga ko'ra, insonlar turli ijtimoiy vaziyatlarda stereotiplarni qayta ko'rib chiqishi, moslashtirishi yoki rad etishi mumkin. Bu jarayon globallasuv, migratsiya va madaniy almashinuv sharoitida yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Qator empirik tadqiqotlar stereotiplarning ijtimoiy xavfsizlikka bevosita ta'sirini ham ko'rsatib bergan. Xususan, salbiy etnik stereotiplar:

- ijtimoiy ishonch darajasini pasaytiradi
- guruhlararo ziddiyatlarni kuchaytiradi
- ijtimoiy izolyatsiya va segregatsiyaga olib keladi [13].

Aksincha, ijobiy stereotiplar va bag'rikenglik muhiti ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, xorijiy tadqiqotlarda "boshqalar obrazi" (image of the other) tushunchasi ham keng o'rganilgan bo'lib, u etnik guruhlar o'rtasidagi o'zaro qabul qilish va ishonch darajasini ifodalaydi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ijtimoiy masofa qanchalik katta bo'lsa, salbiy stereotiplar shunchalik kuchli namoyon bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy ilmiy adabiyotlar tahlili quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirish imkonini beradi:

- millatlararo stereotiplar ijtimoiy ongning tabiiy qismi bo'lib, ular kognitiv va ijtimoiy omillar ta'sirida shakllanadi;
- salbiy stereotiplar ijtimoiy xavfsizlik va barqarorlikka tahdid soluvchi omil hisoblanadi;
- guruhlararo muloqot va institutsional siyosat stereotiplarni kamaytirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega;
- zamonaviy jamiyatda stereotiplar dinamik xarakterga ega bo'lib, ularni boshqarish va transformatsiya qilish mumkin.

Mazkur nazariy yondashuvlar ushbu tadqiqotda olingan empirik natijalarni ilmiy jihatdan izohlash va ularni kengroq kontekstda baholash imkonini beradi.

O'zbekistonda millatlararo munosabatlar, bag'rikenglik va ijtimoiy xavfsizlik masalalari mustaqillik yillaridan boshlab ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan. Ayniqsa, Yangi O'zbekiston sharoitida inson qadri, fuqarolik birligi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash masalalari mazkur tadqiqotlarning nazariy va amaliy ahamiyatini yanada oshirmoqda [14].

Mahalliy ilmiy manbalarda millatlararo munosabatlar, avvalo, ko'p millatli jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy omil sifatida qaraladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Fanlar

akademiyasi doirasida olib borilgan tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, mamlakatdagi etnik xilma-xillik ijtimoiy taraqqiyotning muhim resursi sifatida baholanadi va uni to'g'ri boshqarish ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashning asosiy sharti hisoblanadi [15].

Millatlararo munosabatlarning huquqiy va institutsional asoslari masalasi ham mahalliy tadqiqotlarda keng yoritilgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida barcha millat vakillarining teng huquqliligi, til va madaniyatini rivojlantirish kafolatlari mustahkamlab qo'yilgani qayd etiladi [16]. Bu esa jamiyatda ijtimoiy adolat va ishonch muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda davlat siyosati darajasida millatlararo totuvlikni ta'minlashga qaratilgan institutsional mexanizmlar ham ilmiy tahlil qilinmoqda. Jumladan, Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do'stlik aloqalari qo'mitasi faoliyatiga bag'ishlangan tadqiqotlarda mazkur institut millatlararo muloqotni rivojlantirish, madaniy almashinuvni qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy ziddiyatlarning oldini olishda muhim rol o'ynashi ta'kidlanadi [17].

Mahalliy olimlardan R.Ubaydullayeva va A.Abdullayev ishlarida millatlararo munosabatlar ijtimoiy barqarorlik va milliy xavfsizlik bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilingan. Ularning tadqiqotlarida qayd etilishicha, jamiyatda bag'rikenglik muhitini shakllantirishda ta'lim, madaniyat va ommaviy axborot vositalari muhim o'rin tutadi [18].

Shuningdek, mahalliy tadqiqotlarda stereotiplar masalasi ham bevosita yoritiladi. Ayrim tadqiqotlarda stereotiplar ijtimoiy ongda shakllangan barqaror tasavvurlar sifatida talqin qilinib, ularning salbiy ko'rinishlari millatlararo ishonchning pasayishiga olib kelishi ta'kidlanadi. Ayniqsa, maishiy darajadagi mensimaslik, til va madaniy farqlarga nisbatan salbiy munosabatlar ijtimoiy barqarorlikka potensial tahdid sifatida baholanadi [19].

Mahalla institutining roli ham alohida ta'kidlanadi. Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash vazirligi doirasida olib borilgan tadqiqotlarda mahalla jamoatchilik nazorati, profilaktika va ijtimoiy muloqot maydoni sifatida millatlararo totuvlikni mustahkamlashda muhim ijtimoiy institut ekani ko'rsatib o'tilgan [19].

ASOSIY QISM

So'nggi yillarda amalga oshirilayotgan "inson qadri" tamoyiliga asoslangan siyosat ham ilmiy adabiyotlarda keng yoritilmoqda. Mazkur yondashuvga ko'ra, har bir fuqaroning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularga teng imkoniyatlar yaratish ijtimoiy xavfsizlikning asosiy sharti hisoblanadi.

Shu bilan birga, mahalliy tadqiqotlarda ayrim muammoli jihatlar ham qayd etiladi. Jumladan: ayrim hududlarda maishiy darajadagi salbiy stereotiplarning saqlanib qolishi;

etnik masalalar bo'yicha ochiq muloqotning yetarli emasligi;

yoshlar orasida madaniy farqlarni qabul qilish darajasining turlichaligi [20].

Bu holatlar ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlashda profilaktik va ma'rifiy ishlarni yanada kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, mahalliy adabiyotlar tahlili quyidagi natijalarni ko'rsatadi:

O'zbekistonda millatlararo munosabatlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi;

huquqiy va institutsional asoslar ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda;

bag'rikenglik va fuqarolik birligi jamiyatda ustuvor qadriyat sifatida shakllangan;

biroq ayrim hollarda maishiy darajadagi stereotiplar saqlanib qolmoqda va ularni bartaraf etish uchun tizimli chora-tadbirlar zarur [21].

Mazkur nazariy yondashuvlar ushbu tadqiqotning empirik natijalarini tushuntirish va ularni milliy kontekstda baholash uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Xorijiy tadqiqotlar asosan stereotiplarning psixologik va kognitiv jihatlariga e'tibor qaratadi. Mahalliy tadqiqotlarda esa institutsional, huquqiy va ijtimoiy omillar ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Shu bilan birga:

- xorijiy yondashuvlar – individual va guruhlararo munosabatlarga urg'u beradi

- mahalliy yondashuvlar – davlat siyosati va ijtimoiy barqarorlikka e'tibor qaratadi

Bu ikki yondashuvni uyg'unlashtirish mazkur tadqiqotning ilmiy ahamiyatini oshiradi.

Tadqiqot doirasida so'rovnoma usulidan foydalanildi. Turli hududlarda yashovchi respondentlar ishtirok etdi. Olingan ma'lumotlar statistik tahlil qilindi va hududlar kesimida solishtirildi [22].

Tadqiqot natijalari mamlakatda millatlararo munosabatlar umumiy jihatdan barqaror ekanini ko'rsatdi. Jumladan, respondentlarning 68,7 foizi o'z yashash joylarida boshqa millat vakillariga nisbatan mensimaslik yoki cheklash holatlari umuman uchramasligini ta'kidlagan. Bu ko'rsatkich ayniqsa Namangan va Xorazm viloyatlarida yuqori bo'lib, mazkur hududlarda bag'rikenglik ijtimoiy me'yor sifatida shakllanganini anglatadi [23].

Shu bilan birga, 20,6 foiz respondent bunday holatlar "deyarli uchramaydi" deb baholagan. Bu holat kamsitish epizodik xarakterga ega ekanligini ko'rsatadi. Biroq Qashqadaryo va Toshkent shahrida ushbu ko'rsatkichning nisbatan yuqoriligi ayrim maishiy darajadagi salbiy stereotiplar mavjudligini ko'rsatadi [24].

Kamsitish holatlarini "o'rtacha tarqalgan" deb baholaganlar ulushi 3,2 foizni tashkil etgan bo'lsa, "juda keng tarqalgan" deb hisoblaganlar atigi 0,9 foizni tashkil qildi. Bu holat kamsitish tizimli muammo emasligini, balki ayrim holatlarda namoyon bo'lishini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, respondentlarning 74,1 foizi o'z hududida kamsitish holatlarini hech qachon kuzatmaganini bildirgan. Bu ko'rsatkich ijtimoiy barqarorlik va millatlararo ishonch darajasi yuqori ekanini ko'rsatadi [25].

Biroq tadqiqot natijalari ayrim latent muammolar mavjudligini ham ko'rsatdi. Xususan, 5,4–5,3 foiz respondent "aytishim qiyin" deb javob bergan bo'lib, bu holat kamsitishning yashirin shakllari mavjud bo'lishi mumkinligini anglatadi [26].

Kamsitishning aniq shakllari tahlili shuni ko'rsatdiki, ular asosan maishiy munosabatlar doirasida namoyon bo'ladi. Eng ko'p qayd etilgan holatlar:

milliy urf-odat va an'analarni pisand qilmaslik (3,7%)

muayyan millatni muammolar bilan bog'lash (3,5%)

"begonalik"da ayblash (3,4%)

haqorat va mazax qilish (3,3%) [27]

Shuningdek, til va madaniy xususiyatlarni masxaralash, ishga joylashishda cheklovlar va ijtimoiy hayotda ishtirokni cheklash kabi holatlar ham ma'lum darajada qayd etilgan. Eng muhim jihatlardan biri — respondentlarning 47,2 foizi kamsitish shakllari haqida aniq fikr bildirishda qiynalgan. Bu holat etnik masalalarning hassosligi va ochiq muhokama madaniyati yetarli darajada shakllanmaganini ko'rsatadi [28].

Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, O'zbekistonda millatlararo totuvlik davlat siyosati darajasida ta'minlanmoqda va ijobiy natijalar bermoqda. Biroq ayrim hududlarda maishiy darajadagi stereotiplar saqlanib qolayotgani ijtimoiy xavfsizlikka potensial tahdid sifatida baholanishi mumkin. Ayniqsa, yashirin (latent) kamsitish holatlari va ochiq fikr bildirishdan tiyilish holatlari ijtimoiy ishonchga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli profilaktik va ma'rifiy ishlar tizimli ravishda davom ettirilishi zarur.

XULOSA

Tadqiqot natijalari quyidagi xulosalarni shakllantirish imkonini berdi:

1. O'zbekistonda millatlararo munosabatlar umumiy jihatdan barqaror va ijobiy xarakterga ega

2. Kamsitish holatlari asosan epizodik va maishiy darajada namoyon bo'ladi

3. Ayrim hududlarda salbiy stereotiplar saqlanib qolmoqda

4. Latent kamsitish va ijtimoiy ehtiyotkorlik mavjud

Shu asosda quyidagi takliflar ilgari suriladi:

- bag'rikenglik va madaniy xilma-xillikni ta'limiy va metodik qo'llab-quvvatlash;

- millatlaloro bag'rikenglik va tolerantlik bo'yicha sotsiologik tadqiqotlarni kengaytirish;

- ommaviy axborot vositalarida inklyuziv kontentni kengaytirish

- mahallada muloqot va mediatorlik mexanizmlarini kuchaytirish

- yoshlar o‘rtasida millatlararo muloqotni rivojlantirish
- davlat xizmatlarida shaffoflik va teng imkoniyatlarni ta’minlash
- millatlaloro stereotiplardan xoli jamiyat barpo etish bo‘yicha yangi loyihalar uchun grandlar ajratish;
- davlat va nodavlat tashkilotlar faoliyatida hamkorlikni va maqsadli targ‘ibot dasturlari asosida ishlash tizimini yo‘lga qo‘yish lozim.

Adabiyotlar/Literatura/ References:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент, 2023.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти фармон ва қарорлари: “Янги Ўзбекистон стратегияси” доирасидаги ҳужжатлар. – Тошкент, 2021-2024.
3. Миллатлараро муносабатлар ва хорижий мамлакатлар билан дўстлик алоқалари кўмитаси расмий материаллари. – Тошкент, 2020-2024.
4. Маҳалла ва нурунийларни қўллаб-қувватлаш вазирлиги ҳисоботлари. – Тошкент, 2022–2024.
5. Allport, G. W. The Nature of Prejudice. – Addison-Wesley, 1954.
6. Tajfel, H., Turner, J. C. Social Identity Theory of Intergroup Behavior. – Cambridge University Press, 1979.
7. Fiske S. T., Cuddy, A. J. C., Glick, P. Stereotype Content Model and its applications. – Journal of Social Psychology, 2002.
8. Brewer M. B. The Psychology of Intergroup Relations. – Annual Review of Psychology, 1999.
9. Pettigrew T.F., Tropp L.R. A Meta-Analytic Test of Intergroup Contact Theory. – Journal of Personality and Social Psychology, 2006.
10. Devine P.G. Stereotypes and prejudice: Their automatic and controlled components. – Journal of Personality and Social Psychology, 1989.
11. Bigler R.S., Liben, L.S. Developmental Intergroup Theory. – Child Development, 2007.
12. Stephan W.G., Stephan, C. W. Intergroup Anxiety Theory. – International Journal of Intercultural Relations, 2000.
13. Bar-Tal D. Stereotypes and Prejudice in Conflict Areas. – Cambridge University Press, 2013.
14. Убайдуллаев Р. Ўзбекистонда ижтимоий барқарорлик ва миллатлараро муносабатлар. – Тошкент, 2019.
15. Абдуллаев А. Жамиятда бағрикнглик ва ижтимоий хавфсизлик масалалари. – Тошкент, 2020.
16. ЎзФАА Ижтимоий тадқиқотлар институти ҳисоботлари. – Тошкент, 2018–2024.
17. Ijtimoiy fikr respublika jamoatchilik fikrini o‘rganish markazi tadqiqotlari. – Toshkent, 2025.
18. Маҳалла институти ва ижтимоий интеграция бўйича илмий ишлар тўплами. – Тошкент, 2022.
19. “Инсон қадри учун” концепцияси доирасидаги илмий таҳлиллар. – Тошкент, 2021-2024.
20. Ўзбекистонда ёшлар ижтимоий онги ва стереотиплар бўйича социологик тадқиқотлар. – Тошкент, 2023.
- 21-28. Empirik tadqiqot manbalari.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000